

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILISH  
JARAYONLARI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR.**

**Nurmatov Xusan Jabborovich**

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 8-maktab psixologi*

**Eraliyev Muzaffar Usmonovich**

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 10-maktab psixologi*

**Alovboyeva Yodgora Shodiyarovna**

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 18-maktab psixologi*

**Anatotsiya:** *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish jarayonlarini o'ziga xos tomonlari, maktab o'quv jarayoniga moslashishi, diqqati, xotirasi, tafakkurini rivojlantiruvchi omillar.*

**Kalit so'zlar:** *“Men”, o'z-o'ziga baho, temperament, ijtimoiylashuv, empatiya, agressiya, xulq-atvor, tasavvur, altruistic, rol o'ynash.*

Maktabga ilk tashrif buyurgan bolalar serharakat, yugurib charchamaydigan, lekin yozuv mashqlaridan tez toliquvchan bo'ladilar. Shu sababli 1-2 sinflarda yozuv topshiriqlari juda ko'p bo'lmasligi kerak. darslar orasiga asosan o'yin mashg'ulotlarini qo'shib yuborish va yana izchillik bilan dars jarayoniga ulab yuborish maqsadga muvofiq. Birinchi sinfda bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

1. Kun tartibi bilan bog'liq qiyinchiliklar. O'quvchi dars va uy vazifalarini bajarishi bilan bog'liq yangi kun tartibiga o'rganishi lozim. Buning uchun kattalar bolaga qo'yiladigan yangi talablarni tushuntirishlari va ularning bajarilishini nazorat qilishlari lozim.

2. Muloqot bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lib, ular o'qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan yangicha munosabatlar o'rnatilishi zaruriyati bilan bog'liqdir.

3. Bu qiyinchiliklarni o'quvchilar o'quv yilining o'rtalarida his qila boshlaydilar. Birinchi sinf o'quvchilarida odatda maktabning tashqi atributlariga

qiziqish mavjud bo'lib, o'quv materialining mazmuniga qiziqish esa zaif shakllangan. Shu sababli o'quvchida o'qishga qiziqish yo'qolishi, maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga aktiv intellektual harakatlarni talab qiladigan masalalar berish, oddiy yodlashni talab qiladigan masalalarni iloji boricha kamaytirish kerak.

Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi bilan ajralib turadilar. Buni ularda birinchi signal sistemasining ustunligi bilan izohlash mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar idroki perqektiv faoliyat darajasiga ko'tariladi. Birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilarning diqqati etarli barqaror emas. 3-4-sinf o'quvchilari esa butun dars davomida o'z diqqatlarini saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham dars davomida qisqa tanaffuslar foydalidir. Bolalarda birinchi signal sistemasi ustun bo'lganligi sababli mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali-harakatli xotira muhimroq rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, turli mulohazalarni ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Uning rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq. Kichik maktab yoshdagi tafakkurning xususiyatlaridan biri narsalarning ba'zi belgilari doimiyligini payqab olmaslikdir. Bolalar tafakkurining bu xususiyatini shvetsariyalik J.Piaje o'rgangan. Narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlariga ko'ra muhim belgilarga asoslanib umumlashtirish xususiyati esa keyinroq shakllana boshlaydi. Bolalar ancha vaqtgacha predmetlarning muhim va nomuhim belgilarini ajrata olmay qiynaladilar. Shuning uchun tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish kerak.

Bu yoshda yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim jarayoni psixikada yangi xususiyat va sifatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

1. Xatti-harakatlarning ixtiyoriy xususiyat bo'lib, o'quvchi ishlarini avvaldan rejalashtirish, ongli ravishda faoliyat maqsadlarini tanlashni o'rganadi.

2. O'quvchi biror masalani echish davomida har bir harakatning tartibi, variantlarini qidiradi, masalaning hal qilinishini nazorat qiladi, ya'ni o'quvchi xatti-harakatlarini ichki planda bajarishni o'rganadi.

3. Bola o'z xatti-harakatlarini va xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslaydi, o'zini xolis baholashni o'rganadi, ya'ni refleksiya rivojlanadi.

Bu yoshda xulq-atvorning axloqiy normalari intensiv shakllana boshlaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar bu normalarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar. O'qituvchi ulardagi ijobiy axloqiy sifatlarni rahbatlantirishi,, salbiylari shakllanishining oldini olishi zarur. Bu yosh davridagi bolalarning o'zaro munosabatlari asosan tashqi hayotiy shart-sharoitlar va tasodifiy omillar bilan belgilanadi. Lekin o'qituvchi ular uchun eng asosiy referent shaxs sifatida idrok qilinadi.

Bolaning aqliy rivojlanish jarayoni idrok bilan boshlanadi. Ob'ektlar va sezgilarni manipulyatsiya qilish orqali sensorli ma'lumotlar bolaning miyasiga kiradi. Bola rang-barang raqamlarni ko'radi, yumshoq o'yinchoqlarga tegadi, barcha buyumlarni anglaydi. Qabul qilingan hislar to'planadi va keyinchalik sifatida foydalanish uchun saqlanadi. Idrokning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolani muhim yutuqlarga olib keladi. Bular:

- atrofdagi ob'ektlarni o'rganish asosida eng muhim xususiyatlarni aniqlash;
- hissiy me'yorlarni shakllantirish va ulardan foydalanishni o'zlashtirish;
- fazoviy orientatsiyani shakllantirish, chuqurlik, balandlik va boshqa tushunchalar;
- vaqtni idrok etish va vaqt oraliqlarida orientatsiya;
- san'at asarlarini idrok etish qobiliyati kabilar.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib har xil hayoliy narsalarni o'ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar. Bolalarning o'yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday

xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir. Bolalar o'yin faoliyatlarining yana bir ajoyib xususiyati shundan iboratki, o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko'pincha umumiylik harakteriga ega bo'ladi. Bunda bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir shofyorning, shifokorning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, onasini, dadasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O'rta, katta maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo'la boshlaydi.

#### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent. 1997.
2. E.G'oziev. «Psixologiya». Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
3. E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
4. E.I.Rogov. “Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovaniy”.
5. I.V.Dubrovina. “Individual'nye osobennosti shkol'nikov”. M: 1875
6. Babanskiy Y. K. «Pedagogika» M. 1988 yil.
7. Munavvarov A. K. «Pedagogika» Toshkent 1996 yil.
8. Avloniy A. «Saylanma» Ikki jildlik. Toshkent., 1999 yil.